

**O'zbekiston tog'larida tarqalgan Juniperus L. Turkumi botanic tavsifi,
vakillari va ahamiyati.**

Djumaboyeva Muhabbatxon

Andijon davlat pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar Fakulteti
Biologiya yo'nalishi 103-gurux talabasi.

Ilmiy rahbar: **Tojiboyev Murodali**

Abstract: The article is devoted to the botanical description of plants of the *Juniperus L.* genus, distributed in the mountains of Uzbekistan, their representatives and ecological significance. The *Juniperus* genus is one of the oldest and ecologically important groups of plants. These plants are mainly found in mountainous and foothill areas and are highly resistant, exhibiting drought and frost resistance. The article analyzes in detail the characteristics of plants belonging to the *Juniperus* genus, the biotopes in which they grow, and their ecological role. *Juniperus* representatives distributed in the Tien Shan, Fergana and Zarafshan mountains of Uzbekistan, especially such species as *Juniperus communis* and *Juniperus turkestanica*, are discussed. The article also considers the use of *Juniperus* plants in folk medicine and the construction industry, their economic and ecological significance, as well as their role in preserving the nature of Uzbekistan. The article emphasizes the need to increase the importance of *Juniperus* plants in ensuring ecological stability and managing natural resources.

Keywords: juniper, dome, apricot juniper, black juniper, Zarafshan juniper.

Аннотация: Статья посвящена ботаническому описанию растений *Juniperus L.*, распространенных в горах Узбекистана, их представителей и экологическому значению. Род *Juniperus* — одна из древнейших и экологически важных групп растений. Эти растения в основном встречаются в горных и предгорных регионах, обладают высокой выносливостью и устойчивостью к засухе и холоду. В статье подробно анализируются характеристики растений рода *Juniperus*, места их обитания и экологическая роль. Представители *Juniperus*, особенно *Juniperus communis* и *Juniperus turkestanica*, встречаются в Тянь-Шане, Фергане и Зарафшанских горах Узбекистана. Также в статье рассматривается использование растений можжевельника в народной медицине и строительной отрасли, их экономическое и экологическое значение, а также роль в сохранении природы Узбекистана. В статье подчеркивается необходимость повышения значения

растений можжевельника в обеспечении экологической стабильности и рациональном использовании природных ресурсов.

Ключевые слова: можжевельник, купольный, можжевельник абрикосовый, можжевельник черный, можжевельник Зарафшанский.

Archa (Juniperaceae)-Sarvdoshlar oilasiga mansub doim yashil daraxt va butalar turkumi 70 ga yaqin turi bor. Archa bir jinsli yoki ikki jinsli shamol yordamida changlanuvchi o'simlik. Archaning erkak qubbasi sarg'ish, 3-6 changdonli qipiqsimon changchilardan iborat. Urg'ochi qubbalari yashil bo'lib qarama-qarshi yoki oldinma keyin o'rnashgan urug'chi barg va urug'kurtakdan iborat. Qubbalari yumaloq diametri 5-20 mm bo'lib, ichida 1-10 dona urug' bor. Archa mart-may oylarida gullaydi. Archaning ko'pchiligi o'rta mintaqalarda o'sadi. Archaning ba'zi turlari tropik hududlardagi tog'larda uchraydi. Masalan Sarv archa, O'rik archa, Zarafshon archasi, Qora archa kabilar O'rta Osiyoda xususan O'zbekiston tog'larida tarqalgan va ular maxsus archa zonalarini tashkil qiladi. Archa Shimoliy yarimsharlarda ham bo'lib katta-katta o'rmonlar hosil qiladi. Archa juda ham foydali, dorivor, xushmanzara o'simlik hisoblanadi. Archa asab sistemasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun archa yog'ochlaridan tayyorlangan yostiqlar ham mavjud. Ular asabni tinchlantirish bilan nerv sistemasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Undan chiqadigan hid bakteriyalarni yo'qotadi. Shamollash, uyqusizlik va bo'g'im kasalliklarida archa yostiqlaridan foydalaniladi. Qadimda va hozirda ham ba'zi joylarda chaqaloqlarning qovuzloqlarini tozalashda archaning quritilgan barglaridan foydalaniladi. Archa revatizm kasalligiga ham davo bo'ladi. Revmatizm kasalligini streptakkok bakteriyasi keltirib chiqaradi. Xalq meditsinasida archaning g'udda mevasidan tayyorlangan qaynatma milk va og'iz bo'shlig'i kasalliklarida og'iz chayish uchun ishlatiladi. Archa o'simliklari turli muhitlarda o'sa oladi. Bundan tashqari archalarni toshloq tuproqli, quruq joylarda topish mumkin. Bu o'simliklarni yaylov hayvonlari va qishloq aholisi turli maqsadlarda keng foydalanadi. Barglari va yog'ochining muhim xususiyatlari tufayli, qishloq aholisi ushbu daraxtlarni kesib ulardan foydalanadi. G'arbiy hududlarda archa o'simliklarining o'ziga xos turlari keng va ochiq o'rmonlarda uchraydi. Yong'inlarning kamayishi va chorva mollarining yo'qligi tufayli g'arbiy archalar ko'payib, ularni kesish ko'paygan. Bu esa atrof-muhitda o'zgarishlarga olib keladi; masalan, avval atrof-muhit va qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan hayvonlar yashaydigan ekotizmlar buziladi. Archalar populyatsiyasi ortgani sari, tog'larda yog'och turlarining kamayishi kuzatilmoqda. Daraxtlar orasidagi

raqobatning kuchayishi, meva mahsulotlari hajmining kamayishiga olib kelmoqda.

Archalar park va bog'lar uchun manzarali o'simlik sifatida keng tarqalgan eng mashhur ignabargli daraxtlardan biridir. Ular turli rang va o'lchamlarda ko'p yillar davomida ko'paytirilgan bo'lib, turli shakllarni yaratish imkonini beradi. Shu jumladan, mitti miniatyura navlari ham mavjud bo'lib, ular dekorativ ko'rinishi bilan bog'larga o'zgacha go'zallik bag'ishlaydi. Yog'och qatronli, qizg'ish, juda qattiq va chirishga yaxshi qarshilik ko'rsatadi, kuyganda yoqimli hidga ega. Yog'ochlik, duradgorlik va hunarmandchilik uchun ishlatiladi. Ba'zan ular qurilish materiali va yoqilg'i sifatida ishlatilgan, ammo archa o'rmonlaridagi yog'och zaxiralari juda kam va bundan tashqari, archa tog'li o'rmonlarda suvni saqlashda katta ahamiyatga ega. Baland archa zang qo'ziqorinining (*Gymnosporangium sabinae*) asosiy mezbonlaridan biridir, Zamburug'lar archa po'stlog'i va yog'ochida tarqalib, hujayralar o'sishining kuchayishiga olib keladi, buning natijasida zararlangan hududdagi novdalar qalinlashadi. Shuningdek, archaning mustahkam yog'ochi qurilish va hunarmandchilikda, bezak sifatida esa bog' va xiyobonlarni ko'kalamzorlashtirishda keng qo'llaniladi. Uning xushbo'y hidi havoni tozalash xususiyatiga ega bo'lib, insonlarga ruhan xotirjamlik bag'ishlaydi.

Bularning barchasi archaning nafaqat o'simlik sifatida, balki inson hayotida ajralmas qimmatga ega tabiiy boylik ekanini ko'rsatadi. Uni asrash va ko'paytirish kelajak avlodlar uchun ham muhim vazifalardan biridir.